

## HARBIY TAYYORGARLIGINING TUSHUNCHASI VA UNING МОХИЯТИ

Umarov Muhiddin Muysinovich

*Akademiya Boshlig'ining O'quv Ishlar Bo'yicha O'rinnbosari*

**Annotatsiy:** *ushbu maqolada harbiy tayyorgarligining tushunchasi va uning mohiyati harbiy ta'lif tizimidagi o'rni, kasbga tayyorlashning o'ziga xosligi batafsil yoritilgan.*

**Kalit suzqlar:** *tarix, sarkarda, harbiy, jangovar, ko'nikma, strategiya, buyruq.*

**Аннотация:** в данной статье подробно раскрывается понятие военной подготовки и ее сущность, ее место в системе военного образования, и уникальность профессиональной подготовки.

**Ключевые слова:** *история, полководец, военные, боевой навык, стратегия, команда.*

**Abstract:** *this article reveals in detail the concept of military training and its essence, its place in the military education system, and the uniqueness of professional training.*

**Key words:** *history, commander, military, combat skill, strategy, team.*

Tarixdan ma'lumki, turkiy xalqlarda o'z vaqtida butun dunë bo'yicha eng kuchli, qudratli qo'shinlari bo'lgan, sohibqiron Amir Temurdek buyuk lashkarboshilar yetishib chiqqan. Harbiy strategiya va taktikalar puxta ishlab chiqilgan. Buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temurning o'sha davrdagi jahon harbiy san'ati rivojiga qo'shgan hissasi, u tuzgan armiyaning tarkibiy tuzilishi, taktikasi va strategiyasi hozirda ko'pchilikni lol qoldirib kelmoqda.

Chunki, Amir Temur o'z sipohlarining doimiy jangovar shayligiga alohida ahamiyat bergen. U tanlab olgan sarkardalaridan o'zlarining harbiy mahoratlarini nafaqat urush vaqtida, balki tinch mehnat chog'ida ham namoyish etishni talab qilgan. Doimiy harbiy tayyorgarlik va harbiy san'atni rivojlantirish tufayli jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etgan. Bu kabi taktik yo'l-yo'riqlarni o'ta sinchkovlik bilan ishlab chiqilishi va ularni joriy etishdagi qat'iylik va mahorat g'alaba manbai bo'lib xizmat qilgan.<sup>1</sup>

Ma'lumki, hozirgi O'zbekiston hududida yashagan ajdod-avlodlarimiz qadimdan turli harakatli o'yinlar, ot o'yinlari, kurash, dorboz, piyoda, poyga, yuk (tosh) ko'tarish va boshqa ko'pgina faoliyatlar bilan to'ylar, bayramlar, milliy marosimlar o'tkazib kelingan. Maxsus mакtab yoki o'rgatadigan

uyushmalar bo'lmasada, ular xalq orasida qo'llanilib kelingan. Aholini, ayniqsa yosh avlodni jismoniy tarbiyalash, ularni mehnat va mudofaaga qurbi yetadigan darajada kamolotga yetishtirish o'tgan davrlardan amalga oshirilgan. Oilada bolalarni jismoniy jihatdan sog'lom qilib mamlakatlariga Rossiya hududidan harbiy o'quv muassasalari ko'chirildi. Sobiq SSSR hududida Naximov, Suvorov harbiy bilim yurtlari, harbiy yo'nalishga ihtisoslashgan maxsus maktablar va sinflar tashkil qilingan.

Ikkinchi davr, 1991 yildan hozirgacha bo'lgan vaqt ni qamrab olib, yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va boshlang'ich harbiy ta'lim ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va ixtisoslashgan maktab-internatlarida harbiylashtirilgan maxsus o'quv sinflari tashkil etilgan hamda hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda.

O'z navbatida bu davrni uch bosqiga ajratish mumkin, ya'ni 1 bosqich – 1991 yildin 2001 yilgacha, 2-bosqich – 2002 yildan 2016 yilgacha, 3 – bosqich 2017 yildan hozirgi vaqtgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Bugungi kungacha bo'lgan vaqt davomida yurtimizda chaqiruvga qadar boshlang'ich harbiy tayyorgarlik tizimi qayta o'rganib chiqildi, pedagogik va harbiy tushunchalar, xususan, harbiy tayyorgarlikning ilmiy-nazariy asoslari tegishliliga ko'ra tavsiflangandan so'ng, mazkur o'quv fani chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyogarlik fani sifatida ta'lim dasturlariga kiritildi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek «Yosh avlodni el-yurtga, vatanga sadoqatli, imon-e'tiqodli, mard va jasur, yuqori malakali, ma'naviyati yuksak insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim o'choqlarining alohida o'rni bor».

Yoshlarga harbiy ta'lim berishda ularga harbiy qismlarning kundalik va jangovar faoliyatida bajaradigan mashqlar, harakatlar va amallarni mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatish ko'zda tutiladi. Chaqiriqqacha va chaqiriq yoshidagi o'smirlar bilan ishslash ko'p qirrali va o'ziga xos jarayondir.

Chaqiriqqacha va chaqiruv yoshidagi yoshlarni ta'lim-tarbiyasi bo'yicha vazifalarni to'laqonli bajarilishi, chinakam vatanparvarlar, o'zishining malakali mutaxassislaridan iborat professional armiya vakillarini yetishtirish imkonini beradi.

Bunday jiddiy, o'ta mas'uliyatli va sharafli vazifani uddalashda ta'lim muassasalaridagi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi alohida ahamiyatga ega.

## **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Norov A. Buyuk sarkarda va uning benazir jang san'ati. <https://saviya.uz>.
2. Qurbanova D. Sohibqironning harbiy san'ati. <https://ziyouz.uz>.
3. Hasanov A. Tinch hayotimizning mustahkam tayanchi // «Huquq va burch» ijtimoiy-huquqiy jurnali huquqburch.uz.
4. Dolimov Sh.Z. Harbiy atamalarining qisqacha izohli lo'g'ati. – Toshkent. 2007.